

**“Qishloq xo‘jaligi” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muommolarni hal etish
va aniq mahsulotga qaratilgan**

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Global iqlim o‘zgarishi sharoitida sug‘oriladigan sho‘rlangan tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini baholash va meliorativ tadbirlarni takomillashtirish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: Landsat va Sentinel kosmik suratlari asosida sug‘oriladigan yerlarning ko‘p yillik sho‘rlanish xaritalari yaratiladi; NDVI, NDWI, NDSI indeksleri yordamida tuproq degradatsiyasi va sho‘rlanish dinamikasi baholanadi; global iqlim o‘zgarishi ta'sirida sizot suvlarining sathi va minerallashuvi o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi; sho‘rlanish xavfi yuqori bo‘lgan hududlar GIS texnologiyalari asosida xaritalashtirildi; sho‘rlangan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar bazasi yaratildi; hosildorlikni saqlash va suv resurslarini tejashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.